SAQ QABILALARINING MODDIY VA MA'NAVIY MADANIYATI

Sapayev Xo'sinboy Sharibbayevich
Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti O'zbekiston tarix ixtisosligi (07.00.01) 1-bosqich Tayanch doktoranti
xusanboysapayev1998@gmail.com
Тел: +998(88)-0071740

Annotatsiya. Maqolada Orolbo'yi sak (saq) qabilalarining moddiy va ma'naviy madaniyati yozma manbalar (Gerodot, "Avesto") hamda arxeologik materiallar (Uygarak, Sakarchaga, Shimoliy Tagisken) asosida tahlil qilinadi. Chorvachilik xo'jaligi, hunarmandchilik, qurol-yarog', turarjoy, dafn marosimlari, olov va Quyosh e'tiqodi, "skif-sibir" uslubidagi san'at o'rganiladi. Tadqiqot natijalari saklarning O'rta Osiyo tarixidagi o'rnini ochib beradi.

АННОТАЦИЯ В статье анализируется материальная и духовная культура сакских племён Приаралья на основе письменных источников (Геродот, «Авеста») и археологических материалов (Уйгарак, Сакарчага, Северный Тагискен). Рассматриваются скотоводческое хозяйство, ремёсла, вооружение, жилища, погребальные обряды, культ огня и Солнца, искусство «скифо-сибирского» звериного стиля. Результаты раскрывают роль саков в истории Средней Азии.

ANNOTATION: The article analyzes the material and spiritual culture of the Saka tribes of the Aral Sea region based on written sources (Herodotus, the Avesta) and archaeological materials (Uygarak, Sakarchaga, Northern Tagisken). Livestock farming, crafts, weapons, dwellings, burial rites, the cult of fire and the Sun, and Scytho-Siberian animal style art are examined. The results reveal the role of the Sakas in the history of Central Asia.

Kalit so'zlar: sak qabilalari, moddiy madaniyat, ma'naviy madaniyat, dafn marosimlari, skif-sibir uslubi, Orolbo'yi.

КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА: сакские племена, материальная культура, духовная культура, погребальные обряды, скифо-сибирский стиль, Приаралье.

KEYWORDS: saka tribes, material culture, spiritual culture, burial rites, Scytho-Siberian style, Aral Sea region.

Kirish

Mustaqillik yillarida O'zbekiston hududida yashagan qadimgi etnik birliklar, xususan Orolbo'yi sak qabilalarining tarixi va madaniyati bo'yicha ilmiy tadqiqotlar sezilarli darajada faollashdi. Saklar miloddan avvalgi I ming yillikning birinchi yarmida Yevroosiyo dashtlarida, jumladan Orolbo'yi, Quyi Sirdaryo va uning atrofidagi hududlarda yashagan ko'chmanchi va yarim ko'chmanchi chorvador qabilalardir [1].

Mavzuning dolzarbligi shundaki, saklarning moddiy va ma'naviy madaniyati O'rta Osiyo sivilizatsiyasining shakllanishida muhim o'rin tutgan. Ularning xo'jaligi, hunarmandchiligi, diniy e'tiqodlari, dafn marosimlari va "skif-sibir" uslubidagi tasviriy san'ati bronza davri Andronovo-Srubnaya an'analarining davomi sifatida shakllangan va keyinchalik Xorazm, Baqtriya va boshqa o'troq madaniyatlar bilan o'zaro ta'sirda rivojlangan [2].

Tadqiqotning maqsadi – Orolbo'yi sak qabilalarining moddiy va ma'naviy madaniyatini yozma manbalar va arxeologik materiallar asosida tahlil qilish, uning o'ziga xos xususiyatlarini ochib berishdir.

Saklarning moddiy madaniyati ko‘chmanchi va yarim ko‘chmanchi chorvachilik xo‘jaligiga asoslangan. Asosiy chorva turlari ot, qo‘y, sigir, tuya va echkidir. Ot va tuya nafaqat go‘sht-sut mahsulotlari manbai, balki ulov, yuk tashish va harbiy kuch vositasi sifatida alohida ahamiyatga ega bo‘lgan [3].

Turarjoylar haqida eng to‘liq ma’lumot Quyisoy-2 manzilgohidan (mil. avv. VII–VI asrlar) olingan. Bu yerda yarim yerto‘lali kulbalar, yog‘och ustunli sinch devorli chaylalar qoldiqlari aniqlangan. Mudofaa devorlari va paxsa-xom g‘isht binokorligi izlari yo‘qligi aholining chorvador ekanligini ko‘rsatadi [4].

Hunarmandchilik ikki yo‘nalishda rivojlangan: xonaki (sopol idishlar, yigirish, to‘qimachilik, charm, bo‘yra, yog‘och, suyak va toshga ishlov berish) va ixtisoslashgan (metallurgiya, qurolsozlik, ot anjomlari). Sopol idishlar qo‘lda, tasma uslubida yasalib, gulxanda pishirilgan. Janubiy hududlardan charxda ishlangan sopol idishlar savdo orqali kelgan [5].

Temir davriga o‘tish metallurgiyada tub o‘zgarishlarga olib keldi. Uygarak va Sakarchaga mozor qo‘rg‘onlaridan temir bilaguzuklar, bronza va temir qurollar topilgan. Qurollar orasida sak kamoni, qisqa xanjar-akinak, ikki qirrali harbiy bolta-sagaris alohida o‘rin tutgan. Gerodot ta’rifiga ko‘ra, saklar tik turgan o‘tkir uchli qalpoqlar, ishtonlar kiyib, shu qurollar bilan qurollangan [6]. Persepol relyeflarida ham saklar qurollangan holda tasvirlangan.

Kiyim-kechak va zeb-ziynat buyumlari “skif-sibir” uslubida ishlangan. Qabrlarga qo‘yilgan dafn jihozlari marhumning ijtimoiy mavqei va oilasining moddiy imkoniyatini aks ettirgan.

Saklarning ma’naviy madaniyati diniy e’tiqodlar, dafn marosimlari, urf-odatlar va tasviriy san’atda yaqqol namoyon bo‘ladi. Ularning dunyoqarashi bronza davri Andronovo an’analariga asoslangan, olov, Quyosh, ot, ajdodlar ruhi va tabiat kuchlariga sig‘inish bilan boyitilgan [7].

Dafn marosimlari eng muhim manba hisoblanadi. Uygarak va Sakarchaga qabristonlarida jasadlarni kuydirish (krematsiya), kulni xaltachalarga solib ko‘mish, qabr ichiga ro‘zg‘or buyumlari, qurollar, ot anjomlari va qurbonlik hayvonlari (sigir, ot, qo‘y, bug‘u, baliq) go‘shti qo‘yish odatlari aniqlangan. “Marhumlar uyi” sifatida qurilgan yerto‘la va kulbasimon qabrlar hayotdagi turarjoyni takrorlagan [8].

Ot suyaklari va qizil oxra bo‘yog‘i berilgan ot jag‘lari otning “narigi dunyoga tashuvchi” vazifasini tasdiqlaydi. Gerodot massagetlar Quyoshga otlarni qurbonlik qilganini yozadi, chunki “dunyodagi eng chaqqon xudoga tez chopar jonliqni” bag‘ishlash lozim deb hisoblangan [9].

Olov e’tiqodi markaziy o‘rin tutgan. Olov marhum jonining osmon olovi – Quyoshga yetib borishiga yordam beruvchi vosita sifatida baholangan. “Avesto”da qurbonlik qilish “haq yo‘l” deb ta’kidlanadi. Xaoma ichimligi va unga sig‘inish saka-xaumavarka etnonimi bilan bog‘liq.

Tasviriy san’at “skif-sibir” uslubida rivojlangan. Metall, suyak, yog‘och buyumlarda yirtqich hayvonlarning o‘txo‘rlarni qiynab yirtish manzaralari uchraydi. Bu tasvirlar tumor vazifasini bajargan, omad va g‘alabaga zamin yaratuvchi sehrgarlik kuchiga ega deb hisoblangan [10]. Maxsus ibodatxonalar aniqlanmagan; e’tiqod marosimlari ochiq havoda, daryo va ko‘llar bo‘ylarida ado etilgan.

Xulosa

Orolbo‘yi sak qabilalarining moddiy madaniyati chorvachilik xo‘jaligi, xonaki va ixtisoslashgan hunarmandchilik, temir davri metallurgiyasi, o‘ziga xos qurol-yarog‘ (akinak, sagaris, sak kamoni) va “skif-sibir” uslubidagi bezak san’ati bilan xarakterlanadi. Turarjoylar yarim yerto‘lali, sodda bo‘lib, bronza davri an’analarini saqlagan.

Ma’naviy madaniyat olov, Quyosh, ot, ajdodlar ruhi va Xaoma e’tiqodlariga asoslangan. Dafn marosimlari (krematsiya, qurbonlik hayvonlari, “marhumlar uyi”) va tumor vazifasini bajaruvchi

hayvon tasvirlari ularning dunyoqarashini ochib beradi. Bu madaniyat O‘rta Osiyo o‘troq sivilizatsiyalari bilan o‘zaro ta’sirda rivojlangan va mintaqa tarixiy-madaniy jarayonlarida muhim o‘rin tutgan.

Tadqiqot natijalari saklarning etnik-madaniy o‘ziga xosligini chuqurroq tushunish, O‘rta Osiyo qadimgi tarixini yangi ma’lumotlar bilan boyitish imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Геродот. Тарих / тарж. ва изоҳ. – Тошкент, 2020.
2. Толстов С.П. Қадимги Хоразм. – Москва, 1948.
3. Итина М.А. Оролбўйи бронза ва илк темир даври қабилалари. – Москва, 1977.
4. Вишневская О.А. Уйгарак маданияти. – Москва, 1973.
5. Яблонский Л.Т. Сакарчага қабристони. – Москва, 1996.
6. Акишев А.К. Скиф-сибир услуби ва саклар санъати. – Алма-Ата, 1984.
7. Кузьмина Е.Е. Скиф-сибир услубининг келиб чиқиши. – Москва, 2002.
8. Авесто. Яштлар / тарж. – Тошкент, 2001.
9. Фёдоров-Давыдов Г.А. Скифлар санъати. – Москва, 1976.
10. Граков Б.Н. Скифлар. – Москва, 1971.